

TEXNOLOGIYALARING TASVIRIY
SAN'ATNI O'QITISHGA TA'SIRI

Shahzodbek Burhonov – NamDPI, magistratura talabasi

Annotatsiya - Maqolada texnologiyalarning tasviriy san'at va uni o'qitish jarayoniga ta'siri ko'rib chiqiladi. Raqamli texnologiyalar va grafik dasturlar san'atning yangi yo'nalishlarini yuzaga keltirib, uning ommalashuviga xizmat qilmoqda. Onlayn ko'rgazmalar, multimedia vositalari va masofaviy ta'lif esa san'atni o'rghanishni yanada qulay qilmoqda.

Abstract - The article examines the impact of technology on visual arts and its teaching. Digital tools and graphic software create new directions in art, while online exhibitions and multimedia resources make art more accessible and engaging for learners.

Аннотация – В статье рассматривается влияние технологий на изобразительное искусство и его преподавание. Цифровые инструменты и графические программы открывают новые направления, а онлайн-выставки и мультимедиа делают искусство более доступным и интересным для изучения.

Kalit so'zlar: Texnologiya, tasviriy san'at, raqamli san'at, multimedia, onlayn ta'lif.

Keywords: Technology, visual arts, digital art, multimedia, online learning.

Ключевые слова: Технологии, изобразительное искусство, цифровое искусство, мультимедиа, онлайн-образование.

Texnologiyalar bugungi kunda har bir sohaga o'z ta'sirini o'tkazib kelayotgani hech kimga sir emas. 2022- 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Shavkat Mirziyoyev:" Tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish.



Atoqli O‘zbekiston xalq rassomlari va amaliy san’ati ustalarining namunali hayoti va ijodini keng targ‘ib qilish hamda ular xotirasini abadiylashtirish.

O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’atini xalqaro darajada ommalashtirish.

Tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn yo‘nalishlarida yetuk mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish”to’g’risida topshiriqlar berilgan va buning yuqori natijalariga erishish hali hanuz davom etmoqda.Raqamli texnologiyalar,sun’iy intellekt,grafik dasturlar dasturlar tasviriy san’atning turli xil yangi yo‘nalishlari yuzaga keltiryapti. Boshqa tomondan esa bu ijodiy yangiliklar an’anaviy rassomchilik va uni o’qitishning qadrini yanada oshiryapti va endilikda rassomchilik endi faqat qog’ozlar va bo’yoqlar bilan cheklanib qolmay,endilikda raqamli formatlarda ham tarqolmoqda. Bu esa san’atning barcha turini dunyoga yana ham tanilishiga olib kelmoqda.

Shu bilan birgalikda,texnologiyalar rivojlanishi natijasida,dunyo bo’ylab san’atga ayniqsa tasviriy san’atga qiziqadiganlar va uni o’rganuvchilar soni keskin oshib bordi,sababi esa muzey va galereyalar onlayn ko’rgazmalarini namoyish qilishni boshlashdi,masofaviy ta’lim olish imkoniyati vujudga keldi.

Texnologiyalar ta’lim jarayoniga keng kirib kelishi bilan tasviriy san’atni o’qitish usullari ham sezilarli darajada o’zgardi.Oldin o’qituvchi bo’yoq, qalam, qog’oz kabilardan foydalangan bo’lsa, hozirgi kunda grafik planshetlar,multimedia dasturlari,interaktiv doskalar, 3 d modellashtirish bilan darsni yanada samarali tashkil qilishi mumkin.

Zamonaviy texnologiyalarni tasviriy san’atni o’qitishga yana boshqa jihatlari ham mavjud va bular:

1.Tezkor tahrirlash imkoniyati – rassomchilikda darslarida o’quvchilar xato qilishsa,ba’zan o’z ishlarini boshidan boshlashar edi ammo endilikda raqamli texnologiyalar orqali o’quvchi va o’qituvchilar o’z xatolarini tez va oson to’g’irlay olishlari mumkin. Bu orqali o’qtuvchi buyurgan ishni o’quvchi xohlaganicha tahrirlashi va qayta chizishi mumkin. Tasviriy san’at bilan shug‘ullanish uchun ko‘plab qulay mobil va kompyuter ilovalari bor. Ularni asosan rasm chizish, bo‘yash, grafik dizayn va raqamli san’at uchun ishlatish mumkin:



Mobil ilovalar IbisPaint X – juda mashhur, qatlamlar, cho‘tkalar va chiroyli effektlarga ega.

Procreate (iPad) – professional rassomlar ko‘p ishlataligani kuchli dastur.

SketchBook (Autodesk) – oddiy va qulay interfeysga ega, boshlovchilar uchun ham, professionallar uchun ham yaxshi.

Concepts – erkin eskizlar va dizaynlar uchun mos.

2. Iqtisodiy jihatdan qulayligi – ta’lim jarayonida turli resurslardan foydalilaniladi va bu har kimga ham yengilik olib kelmaydi. Multimedia vositalaridan foydalangan holda an’anaviy materillar sarflanmaydi, bu iqtisodiy va ekologik jihatdan foydali ish.

3.O’quv materiallarning keng qamrovligi – ijtimoiy tarmoqlardan, turli saytlardan foydalangan holatda o’qtuvchilar va o’quvchilar elektron kutubxonalardan, videodarsliklardan va turli ko’rgazmalardan foydalangan holda o’z bilimlarini mustahkamlashlari yoki mustaqil o’rganishlari mumkin.

4. Xalqaro hamkorlik – o’quvchilar onlayn platformalar orqali boshqa davlatdagi tengdoshlari bilan hamkorlikda ishlar qilishlari mumkin. San’atga qiziqadiganlar o’zaro fikr almashishlari va onlayn ko’rgazmalarini tashkil qilishlari mumkin.

5.O’quvchilar uchun nazorat va baholash qulayligi – o’quvchilarning ishlari onlayn yig’ilib qisqa vaqtida tekshirilishi imkoniyati paydo bo’ldi.

Xulosa qilib aytganda, *Bruce Wandsning “Art in the Digital Age” asarida yozilganidek, texnologiyalar san’atni o’qitishda yangi ufqlarni ochib, yoshlarni nafaqat san’atkor sifatida, balki tanqidiy va innovatsion fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiradi. Shunday ekan, texnologiyalar davrida tasviriy san’atning qadri pasayib qolmay, aksincha, yangi qirralari bilan jamiyatda yanada muhim o’rin egallab bormoqda.* raqamlı texnologiyalar tasviriy san’at ta’limini yanada samarali, interaktiv va jozibador qildi. O’quvchilarda ijodkorlik, estetik did, tanqidiy fikrlash va innovatsion yondashuv kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bois, tasviriy san’at raqamlı davrda ham nafaqat inson ruhiyatiga, balki ta’lim jarayonining sifatiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatishda davom etmoqda.



FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bruce Wands “Art in the Digital Age”
2. PF-60-Son 2022-2026-yillarga mo’ljallangan harakatlar strategiyasi
3. Cyberlenika.ru